Xidiraliyev Komil Esanovich.
Guliston davlat universiteti
“Iqlim o‘zgarishi va geoaxborot tizimlari” kafedrasi dotsenti, g.f.n.
Tolekov Zangar Alimovich.
Al-Farobiy nomidagi Qozog'iston Milliy Universiteti.
Geografiya, yer tuzilishi va kadastr kafedrasi, PhD-doktorant
Djurayev Mansur Egamberdiyevich.
Guliston davlat universiteti
“Iqlim o‘zgarishi va geoaxborot tizimlari” kafedrasi dotsenti, g.f.f.d. (PhD)
Xidiraliyev Eldor Komilovich.
“Geografiya” ta’lim yo‘nalishi 1-bosqich magistranti.

TURISTIK RESURSLAR, TURIZM INDUSTRIYASI-TURIZM RIVOJINING ASOSIY OMILI SIFATIDA

Annotatsiya. Mazkur maqolada turistik resurslar, turizm industriyasi mohiyati nazariy jihatdan atroflicha yoritilgan. Shuningdek, O‘zbekistonning turistik resurslari va turizm industriyasi turizm rivojining asosiy omili sifatida atroflicha yoritib berilgan. O‘z navbatida Turizm rivojining o‘ziga xos muammolari o‘rganilgan va istiqbol yo‘nalishlari mualliflar tomonidan ilmiy asosda bayon qilingan.

Kalit so‘zlar. Turizm, turistik resurs, turizm industriyasi, tarixiy-madaniy yodgorliklar, tabiiy yodgorliklar, turizm bozori, xalqaro turizm.

Хидиралиев Комил Эсанович.
Гулистанский государственный университет
Доцент кафедры «Изменение климата и геоинформационные системы»,
кандидат географический наук
Толеков Зангар Алимович.
Казахский национальный университет им. Аль-Фараби
Кафедра географии, землеустройства и кадастра, PhD-докторант
Джураев Мансур Эгамбердиевич.
Гулистанский государственный университет
Доцент кафедры «Изменение климата и геоинформационные системы»,
доктор философии в области географии (PhD)
Хидиралиев Элдор Комилович.
Магистр 1-го курса по специальности «География».

ТУРИСТИЧЕСКИЕ РЕСУРСЫ, ТУРИСТИЧЕСКАЯ ИНДУСТРИЯ КАК ОСНОВНОЙ ФАКТОР РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА.

Аннотация. В данной статье представлен теоретический обзор сущности туристических ресурсов и туристической индустрии. Также дан подробный обзор туристических ресурсов и туристической индустрии Узбекистана как основного фактора развития туризма. В свою очередь, изучены специфические проблемы развития туризма, и авторы на научной основе излагают свои взгляды на эту проблему.

Ключевые слова: Туризм, туристические ресурсы, туристическая индустрия, историко-культурные памятники, природные памятники, туристический рынок, международный туризм.

Khidiraliyev Komil Esanovich.
Gulistan State University
Associate Professor, Department of Climate Change and Geoinformation Systems,
Candidate of Geographical Sciences
Tolekov Zangar Alimovich.
Al-Farabi Kazakh National University
Department of Geography, Land Management, and Cadastre, PhD candidate
Djurayev Mansur Egamberdiyevich.
Gulistan State University
Associate Professor, Department of Climate Change and Geoinformation Systems,
PhD in Geography
Khidiraliyev Eldor Komilovich.
First-year Master's student, specialization: Geography.

TOURISM RESOURCES AND THE TOURISM INDUSTRY AS A KEY FACTOR IN TOURISM DEVELOPMENT.

Abstract. This article provides a theoretical overview of the nature of tourism resources and the tourism industry. It also offers a detailed examination of the tourism resources and the tourism industry in Uzbekistan as a primary driver of tourism development. Furthermore, the specific challenges facing the development of tourism are explored, with the authors presenting their scientifically grounded perspectives on these issues.

Keywords: Tourism, tourism resources, tourism industry, historical and cultural monuments, natural landmarks, tourism market, international tourism.

Kirish. Bizga ma'lumki, har qanday hududiy birlikni, sohani, tarmoqni rivojlanishida bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatuvchi omillar bo'ladi. Bu omillarni o'rganishimiz, ta'sir kuchi doirasida baholashimiz bugungi kunning dolzarb mavzularidan biri hisoblandi. Mazkur doirada qaraydigan bo'lsak, har bir davr ishlab chiqarish kuchlari taraqqiyoti va ishlab chiqarish munosabatlari mutanosibligi bilan belgilanishi lozim. Mana shunday bir davrni boshidan kechirayotgan O'zbekiston iqtisodiyotida turizm industriyasiga e'tibor kuchayib bormoqda. Murakkab, serqirra, zamonaviy turizm industriyasining vujudga kelishi, hududdagi turistik resurslar salohiyati bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida" gi qonunida (1999 yil, 20-avgust, 830-1-son) turistik resurslarga quyidagicha ta'rif berilgan. Turistik resurslar-tegishli hududning tabiiy-iqlim, sog'lomlashtirish, tarixiy-madaniy, ma'rifiy va ijtimoiy-maishiy ob'ektlari majmui,-deyiladi. Rossiya adabiyotlarida esa turistik resurslar-turizm jarayoni va maqsadlarida inson ehtiyojlarini qondirish qobilyatiga ega bo'lgan tabiiy- iqlim, ijtimoiy-madaniy, tarixiy, me'moriy va arxeologik, ilmiy va sanoat, manzarali, sig'inish va boshqa ob'ektlardir, - deb yozilgan.

Asosiy qism. Turistik resurslar milliy boylik hisoblanadi. Lekin, ulardan alohida muhim ahamiyatga egalari xalqaro miqyosdagi ob'ektlar va esdaliklarga kiradi. Bunday ro'yxatni YUNESKO har yili belgilab boradi. Ma'lumki, O'zbekiston tarixiy va madaniy yodgorlik resurslariga boy mamlakat hisoblanadi. Mana shu bebaho merosimizning ko'pgina qismi insoniyat mulkiga aylanganligiga ko'p vaqt bo'lgan. YUNESKO ning Jahon merosi ro'yxatiga Xivadagi Ichon Qal'a 1990-yil, Buxoroning tarixiy markazi 1993-yil, Shahrisabzning tarixiy markazi 2000-yil kiritilgan. 2001-yil 12-16 dekabr kunlari Finlyandiyaning Xelsinki shahrida YUNESKO Jahon merosi Qo'mitasining navbatdagi yig'ilishi bo'lib, unda Samarqand shahri ham YUNESKO ning Jahon merosi ro'yxatiga kiritildi. Demak, endiliqda mazkur to'rttala tarixiy maskan xalqaro hamjamiyat muhofazasida bo'ladi. Hozirgacha dunyodagi 721 ta madaniy va tarixiy yodgorliklar YUNESKO ning Jahon merosi ro'yxatiga kiritilgan. Xalkaro turizm markazlari ishni yanada rivojlantirishlari lozim [1,2].

O‘zbekiston o‘zining turistik resurslar salohiyati bo‘yicha Markaziy Osiyoda oldingi o‘rinlardan birini, dunyo buyicha esa yuqori o‘rinlarni egallaydigan 10-15 mamlakatlar ichidan o‘rin olgan. Respublika hududida turli davrlarda vujudga kelgan to‘rt mingdan ortiq arxitektura, tarixiy va tabiiy yodgorliklar mavjud. Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi tasarrufida-Chotqol tog‘-o‘rmon biosfera qo‘riqxonasi (Toshkent viloyatida), Hisor tog‘-archa qo‘riqxonasi (Qashqadaryo viloyatida), Qishloq va suv xo‘jaligi huzuridagi O‘rmon xo‘jaligi bosh boshqarmasi tasarrufida Zomin tog‘-archa (Jizzax viloyatida), Baday-to‘qay tekislik-to‘qay (Qoraqalpog‘iston Respublikasida), Qizilqum qumli-to‘qay (Buxoro va Xorazm viloyatlarida), Zarafshon tekislik-to‘qay (Samarqand viloyatida), Nurota tog‘-yontoq (Jizzax viloyatida), Surxon tog‘-o‘rmon (Surxondaryo viloyatida) qo‘riqxonalari hamda Geologiya va mineral resurslar davlat qo‘mitasi tasarrufida-Kitob geologik qo‘riqxonasi faoliyat yuritmoqda.

O‘simlik dunyosi, tirik organizmlar qatoridan joy olgan tarzda, ekologik tizimlarda o‘z o‘rniga va ahamiyatiga ega. Ma’lumotlarga ko‘ra keyingi 200 yil mobaynida o‘simlik dunyosi roppa-rosa ikki barobarga qisqargan. Yer kurrasida uchraydigan 600 ming turdan ortiq yovvoyi o‘simlik turlaridan O‘zbekistonda bor-yo‘g‘i 4 ming turi uchraydi, xolos. “O‘zbekiston Respublikasining Qizil kitobi” dan olingan ma’lumotlarga ko‘ra keyingi yillar ichida 138 turdagi yovvoyi o‘simliklar noyob va yo‘qolib ketish xavfi ostidagi turlar qatoridan joy olgan.

Hayvonot dunyosi o‘simlik dunyosidan farqli ekologik tizimlarda aynan, ularning turi va sonining ko‘pligi, ya’ni biologik xilma-xilligi bilan ajralib turadi. O‘zbekiston faunasining turlari ko‘p bo‘lib, sut emizuvchilarning 97 turi, sudralib yuruvchilarning 57 turi, qushlarning 410 turi mavjud [3].

Ushbu resurslar asosida turizm industriyasi rivojlanib bormoqda. Avvalo turizm industriyasi mohiyatiga e’tibor bersak. Joylashtirish vositalari, transport, umumiy ovqatlanish ob’ektlari va ko‘ngilochar, ma’rifiy, ishbilarmonlik, davolash-sog‘lomlashtirish, jismoniy tarbiya-sport hamda boshqa maqsadga mo‘ljallangan ob’ektlar, turistik faoliyatni amalga oshiruvchi tashkilotlar, ekskursiya xizmatlarini ko‘rsatuvchi tashkilotlar majmui, shuningdek ekskursiya etakchilarining, gidlar (gid-tarjimonlar) hamda yo‘riqchi-yo‘l boshlovchilarning xizmatlari majmui turistik industriyadir. Turistik xizmatlar ko‘rsatish shartnomasiga muvofiq turistik industriyadagi xizmatlarning turlari quyidagilardan iboratdir:

-turlarni taqdim etish bo‘yicha xizmatlar;
-yashash joylarini taqdim etish bo‘yicha xizmatlar;
-ovqatlantirish bo‘yicha xizmatlar;
-axborotga oid, reklama xizmatlari;
-transport xizmatlari;
-barcha turdagi transport uchun chiptalar hamda tadbirlarga va ko‘ngilochar ob’ektlarga borish uchun chiptalar taqdim etish (band qilib qo‘yish, sotish va etkazib berish) bo‘yicha xizmatlar. Turistik xizmatlar ko‘rsatish shartnomasida boshqa turistik xizmatlar ham nazarda tutilishi mumkin.

Ushbu omillar asosida O‘zbekistonda turizm o‘ziga rivojlanish yo‘lidan bormoqda. Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi (ITIM) 2017-2024 yillarda O‘zbekistonda turizm sohasining rivojlanishini tahlil qildi. Tadqiqotda turistlar tashrifi, sohadagi bandlik, turoperatorlar faoliyati statistikasi, xizmatlar eksporti hamda yo‘nalishlar o‘zgarishi kabi ko‘rsatkichlar o‘rganilgan. Ma’lumotlarga ko‘ra, so‘nggi etti yilda xorijiy sayyohlar soni qariyb 4 barobarga ko‘paygan. 2017 yilda mahalliy sayyohlar 10,6 mln kishini tashkil etgan bo‘lsa, 2024 yilda bu ko‘rsatkich 22 mlnga etgan. Shu davrda xorijiy sayyohlar soni 2,7 mln nafaridan 10,1 mln nafaragacha oshgan. Statistika qo‘mitasi esa 2025 yilning dastlabki 5 oyida 4,2 mln chet el fuqarosi turizm maqsadida tashrif buyurganini ma’lum qildi. Bu 2024 yilga nisbatan 48,2 foizga ko‘p.

Turoperatorlar soni 2017–2021 yillarda deyarli 5 barobarga oshib, 2024 yilda 3 ming 686 taga etdi. Shu o‘rinda, 2022–2024 yillarda «Toshkent Siti», «Samarqand turizm markazi», «Afsonalar vodiysi», «Arda Xiva» va «Miraki turizm markazi» kabi yirik ob’ektlar ishga tushirildi. Hududlar kesimida Jizzax, Navoiy, Qashqadaryo, Samarqand, Surxondaryo, Toshkent va Namangan viloyatlarida 12 ta «turistik qishloq» faoliyat yuritmoqda. Ular yiliga 4 mln sayyohga xizmat

ko‘rsatmoqda. Mo‘ynoq va Parkent tumanlarida esa ekstremal turizmni rivojlantirish maqsadida parashyutdan sakrash va aerodayving xizmatlari tashkil etilgan.

Sohada qanday yo‘nalishlar ochildi? Turistik oqim dinamikasi tahlili asosida 40 dan ziyod mamlakat sayyohlari uchun maxsus yo‘nalishlar ishlab chiqildi va respublikada umumiy yo‘nalishlar soni 95 taga etdi. Bu sayyohlar uchun mamlakatda turizm xizmatlarining tanlovini ko‘paytirdi. Ovqatlanish va mehmonxona xizmatlarida turli qatlam iste’molchilari uchun «Halol», «Kosher» va «Vegan» standartlari joriy etildi. Ichki turizmni qo‘llab-quvvatlash maqsadida esa 2022 yildan «Keshbek» dasturi ishga tushirildi. Bu orqali mahalliy aholi o‘z sayohatlaridan sarflagan mablag‘ining bir qismini qaytarib olish imkoniyatiga ega bo‘ldi [4].

Xorijiy bozorlarda raqamli targ‘ibot kampaniyalari katta samara berdi. Masalan, 2024 yilda Xitoyning «Trip.com» platformasida O‘zbekiston turizmini targ‘ib qilish dasturi ishga tushirildi. Natijada 37,7 ming xitoylik sayyoh aynan shu platforma orqali keldi, yillik umumiy oqim esa 57 ming kishiga etdi. Bu 2023 yilga nisbatan 1,6 barobar o‘sish demakdir. Bundan tashqari, hududlarda turizmning yangi yo‘nalishlari joriy etildi. Ular orasida «turizm mahallasi», «turizm qishlog‘i», «qishki turizm» va «tabarruk ziyorat» kabi yo‘nalishlar mavjud bo‘lib, ular turizmni diversifikatsiya qilish va mahalliy aholi daromadlarini oshirishga xizmat qilmoqda.

Turizmning iqtisodiyotga ta’siri qanday bo‘ldi? Turizm qo‘mitasining ma’lumotiga ko‘ra, aholini ish bilan ta’minlash ko‘rsatkichi 7 yilda 2 barobar oshgan. 2017 yilda 187 ming kishi ishlagan bo‘lsa, 2024 yilda ularning soni 391 mingga etdi. Shuningdek, sohaning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 1,7 foizga chiqdi. Xizmatlar eksporti 2023 yilda 3,4 mlrd dollarni tashkil qilib, 7 yilda umumiy miqdor 10,7 mlrd dollarga etgan. Bundan tashqari, 93 davlat fuqarolari uchun vizasiz tartib joriy etildi.

Shu bilan birga, 56 davlat sayyohlari elektron viza orqali mamlakatga kirish imkoniyatiga ega bo‘ldi. 47 davlat fuqarolari uchun esa alohida imtiyoz belgilanib, ular O‘zbekistonda tranzit tarzida vizasiz besh kungacha qolishi mumkin. Shuningdek, yana 76 davlat fuqarolari uchun turistik vizani rasmiylashtirish tartibi soddalashtirildi. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, so‘nggi etti yilda O‘zbekiston turizm sohasi keskin o‘sishni boshdan kechirdi.

2026 yilning dastlabki sakkiz oyida O‘zbekistonga 9,1 million nafar xorij fuqarosi turistik maqsadlarda tashrif buyurdi. Bu 2025 yilning shu davriga qaraganda 21,1% ga ko‘p. Tahlillar asosida qaraydigan bo‘lsak, 2026 yilning dastlabki uch choragida turistik oqim dinamikasi quyidagicha ko‘rsatkichga ega bo‘ldi:

-2023 yil-6,6 million nafar;
-2024 yil-10 million nafardan ortiq;
-2025 yil-11,7 million nafar;
-2026 yil (yanvar-avgust)-9,1 million nafar.

O‘zbekiston 2026 yil yanvar–fevral oylarida turistik maqsadlarda kelgan 1776 336 nafar xorijiy fuqaroni qabul qildi. 2025 yilning shu davriga nisbatan ko‘rsatkich 441 ming kishiga oshgan bo‘lib, bu 33 foizlik o‘sishni tashkil etadi. Turistik oqim 156 ta davlat fuqarolarini qamrab olgan. Eng ko‘p tashrif buyuruvchilar qo‘shni davlatlar hissasiga to‘g‘ri keldi. Turistlar soni bo‘yicha etakchi Qirg‘iziston bo‘lib, ushbu mamlakatdan 521138 nafar fuqaro kelgan. Keyingi o‘rinlarda Tojikiston-469060 nafar va Qozog‘iston-386284 nafar turist bilan qayd etildi. Boshqa davlatlar orasida Rossiyadan 123310 nafar, Afg‘onistondan 83613 nafar tashrif buyuruvchi kelgan. Shuningdek, birinchi o‘ntalikdan Turkmaniston (51206), Xitoy (49080), Turkiya (24212), Hindiston (9438) va Koreya Respublikasi (5398) o‘rin olgan. Ko‘rsatkichlarning o‘sishi mamlakatga turistik oqimning ortib borayotganini va kiruvchi turizm geografiyasi kengayayotganini aks ettiradi.

O‘zbekiston turizm imkoniyatlari orasida tarixiy, madaniy va tabiiy meros ob’ektlari muhim o‘rin tutadi. Yangi ma’lumotlar asosida qaraydigan bo‘lsak, mamlakatda 7000 dan ortiq madaniy meros ob’ektlari mavjud bo‘lib, ularning 2000 tasi arxeologik yodgorliklardir. Turizmni rivojlantirish uchun turli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda, jumladan, soliq imtiyozlari, yangi turizm yo‘nalishlarini yaratish va turistik imkoniyatlarni yaxshilash. Mamlakatda 186 xil xalqaro va mahalliy festivallar tashkil etiladi, ular orqali qo‘shimcha 1 million xorijiy va 5 million nafar ichki turistlarni jalb qilish imkoniyati bor [5,6].

Xulosa o‘rnida aytish lozimki, turizm sohasi jahon iqtisodiyotining eng tez sur’atlar bilan rivojlanib borayotgan va serdaromad sohalaridan biriga aylanib bormoqda, uning jahon bo‘yicha yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 10 foizni, jahon eksportining 7 foizini, xizmatlar eksportining 30 foizini, yaratilayotgan har 10 ta ish joyining 1 tasini tashkil qilmoqda. Butunjahon turizm tashkiloti (UN Tourism) tomonidan berilgan ma’lumotlarni tahlil qiladigan bo‘lsak, xalqaro turizm bozorida 2026 yilning birinchi choragida xalqaro turistlarning davlatlar bo‘ylab tashrifi ikki foizga oshgan. Ushbu ko‘rsatkich Yaqin Sharqdagi inqiroz sabab yuzaga kelgan salbiy ta’sirlarga qaramay qayd etilgan. 2026 yilning birinchi choragida 307 million nafar turist xalqaro sayohatni amalga oshirgan, bu 2025 yilning shu davriga nisbatan qariyb 6 million nafarga ko‘pdir.

Dunyoning eng yirik turizm mintaqasi hisoblangan Yevropaga 2026 yilning birinchi choragida 130 milliondan ortiq xalqaro turist tashrif buyurib, bu 2025 yilning shu davriga nisbatan 4 foizga oshgan. Afrikada ham xalqaro tashriflar soni birinchi chorakda 4 foizga oshgan. Xususan, Shimoliy Afrikada turistlar oqimi 4 foizga ko‘paygan bo‘lsa, Sahroi Kabirdan janubdagi Afrika mamlakatlarida ham shu davrda 4 foizlik o‘sish qayd etilgan. Osiyo va Tinch okeani mintaqasida birinchi chorak yakunlariga ko‘ra 3 foizlik o‘sish kuzatilgan.

Biroq ayrim yo‘nalishlardagi turlicha natijalar tufayli bu ko‘rsatkich kutilganidan biroz past bo‘lgan. Amerika qit’asida xalqaro turistlar soni 2 foizga oshib, Markaziy Amerikada kuchli o‘sish (+18 foiz), Janubiy Amerikada esa aksincha 1 foizlik pasayish qayd etilgan. Yaqin Sharqda esa mojaro ta’siri natijasida xalqaro turistlar tashrifi keskin tushib ketgan.

BMT Turizm tashkilotining (World Tourizm Barometer) so‘nggi tahliliy ma’lumotlariga ko‘ra, yuqori o‘sish qayd etilgan davlatlar orasida Paragvay (+46 foiz), Yangi Kaledoniya (+45 foiz), Salvador (+43 foiz), Mongoliya (+39 foiz), Palau (+37 foiz), O‘zbekiston (+37 foiz), Tonga (+25 foiz), Angliya (+25 foiz), Irlandiya (+24 foiz) va Bruney (+23 foiz) kabi davlatlar o‘rin olgan. Eng quvonarlisi, O‘zbekiston Respublikasi ham 2026 yilning dastlabki uch oyida xorijiy sayyohlarni jalb qilish bo‘yicha dunyoda eng yuqori o‘sish qayd etilgan TOP-5 davlat qatoriga kirgan. Yuqoridagi ma’lumotlardan jahon turizm bozorida raqobatning kuchayib borayotganligini ko‘rishimiz mumkin.

Jahon turizmidagi bu o‘zgarishlarni hisobga olgan holda mamlakatimizda ham turizm sohasini tubdan isloh qilishga, uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini oshirishga, xorijdan keladigan sayyohlar oqimini oshirishga, bu borada me’yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishga katta e’tibor qaratilmoqda. Qolaversa, Yangi O‘zbekistonni barpo etishda turizm sohasini rivojlantirish maqsadida davlat tomonidan bir qator ustuvor vazifalar belgilangan.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026 yil 16 fevraldagi “Mamlakat taraqqiyotining 2030 yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi farmonida O‘zbekistonda tashqi va ichki turizmni rivojlantirish uchun keng sharoitlar yaratish orqali sayyohlar sonini oshirish belgilangan.

Bunda 2030 yilga kelib, mamlakatimizda turizm sohasining yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 7 foizga, turizm xizmatlari eksportini 6 milliard dollarga, mamlakatimizga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar yillik sonini 20 million nafarga etkazish, “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil” dasturi doirasida ichki sayyohlarning respublika bo‘ylab 25 millionta safarlarini amalga oshirish, xususiy investitsiyalarni jalb qilish hisobiga turizm klasterlari sonini 25 taga etkazish kerak bo‘ladi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026 yil 30 apreldagi “Hududlarda turizm infratuzilmasini jadal rivojlantirish va sohada loyiha boshqaruvi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori imzolandi. Ushbu qarorga asosan hududlarda turizm infratuzilmasini kompleks rivojlantirish, turizm sohasida yangi ish o‘rinlarini yaratish va aholi daromadlarini oshirish belgilangan. Bunda asosiy maqsad qilib, turizm va unga yondash sohalarda 24 mingta yangi ish o‘rni yaratish hamda 16 mingta ish o‘rinlarini soyadan chiqarish orqali 40 mingta ish o‘rnini tashkil etish, sohani loyihaviy boshqaruv tizimiga o‘tkazish orqali 31 ta turizm ob’ektini tashkil etish va rivojlantirish, joylashtirish vositalari sonini 8250 taga, ulardagi xonalar sonini 95 mingtaga, shundan mehmonxonalar sonini 1380 taga hamda ulardagi xonalar sonini 45 mingtaga etkazish belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasida ushbu topshiriqlarning ijrosini ta’minlash maqsadida qator ishlar olib borilmoqda, Jumladan, Turizm qo‘mitasi rahbariyati tomonidan 2026-2030 yillarga mo‘ljallangan

Turizmni rivojlantirish strategiyasi hamda sohani uzoq muddatli taraqqiy ettirish modeli muhokamasiga bag‘ishlangan uchrashuvlar, tadbirlar o‘tkazilib kelinmoqda, unda tadbirkorlar, turizm va mehmonxona biznesi vakillari, ilmiy doira vakillari, soha ekspertlari, ommaviy axborot vositalari xodimlari ishtirok etmoqda, bunda mamlakatda turizmni rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar, sohadagi mavjud imkoniyatlar, dolzarb muammolar va istiqbolli takliflar atroflicha muhokama qilinib, asosan ishtirokchilarning fikr-mulohazalari muhim ahamiyatga ega ekanligi alohida ta’kidlanmoqda. Tadbirlarda qayd etilishicha, davlat rahbari tomonidan turizm sohasini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish, zamonaviy boshqaruv usullarini joriy etish hamda hududlarning iqtisodiy salohiyatini oshirishga katta e’tibor qaratilgan.

O‘zbekistonning turizm salohiyatini xalqaro miqyosda keng targ‘ib qilish, mamlakatimizning turistik yo‘nalishlari, madaniy merosi hamda zamonaviy infratuzilmasini xorijiy auditoriyaga keng tanishtirish maqsadida xorijiy ommaviy axborot vositalari vakillari va taniqli blogerlar uchun mamlakatimiz bo‘ylab info va press-turlar tashkil etilmoqda. Umuman olganda mamlakatimizga kelayotgan sayyohlarning oqimini oshirish, milliy turizmni jahon turizm bozoridagi raqobatbardoshligini oshirish, turizm turlarini kengaytirish muhim ahamiyatga egadir.

O‘zbekiston Respublikasiga tashrif buyurayotgan sayyohlarning asosiy qismi tarixiy-madaniy turizm, ya’ni tarixiy shaharlar, obidalar, madaniy meros ob’ektlari va ziyoratgohlarga kelayotganligini alohida ta’kidlab o‘tish maqsadga muvofiq.

Tarixiy-madaniy turizmning turi mavsumiylikka bog‘liqligi hamda tashrif buyurayotgan sayyohlarning asosiy qismi nafaqa yoshida ekanligi sababli, yoshlarni ham keng jalb qilish maqsadida turizmning boshqa turlarini, ya’ni MICE (**M**-Meetings: uchrashuvlar, muzokaralar, strategik sessiyalar, **I**-Incentives: jamoani shakllantirish, rag'batlantirish turlari, korporativ tadbirlar, **C**-Conferences: forumlar, kongresslar, seminarlar, **E**-Exhibitions/Events:ko'rgazmalar, PR tadbirlari, matbuot turlari), tibbiy, ta’lim, sog‘lomlashtirish, ziyorat, ekologik, agrar, gastronomik, etnografik, tog‘ turizmi kabi turlarini ham rivojlantirish.

Shuningdek asosan hududlarda turizm sohasini keng rivojlantirish, sayyohlarning oqimi past hududlarda yangi turizm klasterlari va sog‘lomlashtirish majmualarini tashkil etish, madaniy meros ob’ektlarini raqamlashtirish, sohada ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning samarali mexanizmini tadbiq etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘risida” gi qonuni. (O‘RQ-830-1-son, 20.08.1999 yil).
2. O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘risida” gi qonuni. (O‘RQ-549-son, 18.07.2019 yil).
3. Kamilova F.K., Ro‘ziyev S.S. Turizm marketingi. O‘quv qo‘llanma. – T.:TDIU, 2007.-12 b.
4. “Mintaqalarda ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish asosida mamlakatda barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashning ustuvor yo‘nalishlari” mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami.-Urganch: UrDU Noshirlik bo‘limi, 2013. - 152 b.
5. Usmonov M.R., Hayitboyev R. Milliy turizmning maxsus turlarini ishlab chiqish. O‘quv-uslubiy majmua. – Samarqand: SamISI, 2011. - 74 b.
6.Jahon iqtisodiyoti globalizatsiyasi sharoitida turizm industriyasi rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlari. Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani maqolalari to‘plami (2019 yil 10 oktyabr). –T.: TDIU, 2019. -608 b.